



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

POKISTONDA SIYOSIY BOSHQARUVNING DEMOKRATLASHUVI DAVRIDA GENDER ISLOHOTLARI

To‘xtasinova Shaxnoza Ibroximovna
Sarbon universiteti, katta o‘qituvchi

Annotatsiya

Pokistonda gender tenglik masalasi mustamlakachilik davridayoq muayyan ijtimoiy ziddiyatlar markazida bo‘lgan. Ammo 1980-yillar oxiriga kelib, xalqaro miqyosda inson huquqlari, ayniqsa xotin - qizlar huquqlarini himoya qilish masalalari kuchaygan sharoitda, mamlakat ichkarisida ham bu boradagi islohotlar zaruratga aylandi. Aynan 1988-yilda hokimiyatga Benazir Bhutto boshchiligidagi Pokiston xalq partiyasining (PPP) qaytishi bilan demokratik qadriyatlar, siyosiy plyuralizm va ayollar faolligini oshirishga qaratilgan yangi siyosiy davr boshlandi. Mazkur maqolada 1988–1999-yillar oralig‘ida Pokiston siyosiy boshqaruv tizimida kechgan demokratik islohotlar va ularning gender siyosatiga ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda Benazir Bhutto boshchiligidagi hukumat davrida ayollar huquqlarini kengaytirish, ularning siyosiy va ijtimoiy hayotdagi ishtirokini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar yoritilgan. Shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlari, siyosiy partiyalar va ommaviy axborot vositalarining roli, diniy-konservativ kuchlarning qarshiligi hamda xalqaro tashkilotlar, xususan, Birlashgan Millatlar tashkiloti va CEDAW konvensiyasining ta’siri ilmiy asosda ko‘rib chiqiladi. Maqolada demokratik qadriyatlar va gender tengligi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ochib berilib, Pokiston tajribasi musulmon dunyosida gender siyosatining shakllanishi va rivojlanishining o‘ziga xos modeli sifatida baholanadi.

Kalit so‘zlar: Gender, Pokiston xalq partiyasi, Benazir Bhutto, WAF, demokratik islohotlar, gender siyosati, ayollar huquqlari, siyosiy ishtirok, fuqarolik jamiyati, CEDAW, BMT, siyosiy tizim, ayollar faolligi, demokratlashuv, ijtimoiy rivojlanish.

ГЕНДЕРНЫЕ РЕФОРМЫ В ПЕРИОД ДЕМОКРАТИЗАЦИИ ПОЛИТИЧЕСКОГО ПРАВИТЕЛЬСТВА В ПАКИСТАНЕ

Тухтасинова Шахноза Иброхимовна
Университет Сарбон, старший преподаватель

Аннотация

В Пакистане вопрос гендерного равенства находится в центре ряда социальных конфликтов еще со времен колониальной эпохи. Однако к концу 1980-х годов, с ростом международной обеспокоенности по поводу прав человека, особенно прав женщин и девочек, внутри страны возникла необходимость в реформах в этой области. Именно с возвращением к власти в 1988 году Пакистанской народной партии (ПНП) во главе с Беназир Бхутто началась новая политическая эра, ориентированная на демократические ценности, политический плюрализм и расширение прав и возможностей женщин. В данной статье анализируются демократические реформы и их влияние на гендерную политику в Пакистан в период 1988–1999 годов. Особое внимание уделяется политике правительства под руководством Беназир Бхутто, направленной на расширение прав женщин и повышение их участия в общественно-политической жизни. Также рассматривается роль институтов гражданского общества, политических партий и средств массовой информации, а также сопротивление со стороны религиозно-консервативных сил. В статье освещается влияние международных организаций, таких как Организация Объединённых Наций и CEDAW. В результате делается вывод о том, что опыт Пакистана представляет собой особую модель взаимодействия демократических ценностей и гендерной политики в мусульманском мире.

Ключевые слова: Гендер, Пакистанская народная партия, Беназир Бхутто, WAF, демократические реформы, гендерная политика, права женщин, политическое участие, гражданское общество, CEDAW, ООН, демократизация, социальное развитие.

GENDER REFORMS DURING THE DEMOCRATICIZATION OF POLITICAL GOVERNMENT IN PAKISTAN

To‘xtasinova Shakhnoza Ibrokhimovna
Sarbon University, Senior Lecturer

Abstract

In Pakistan, the issue of gender equality has been at the center of certain social conflicts since the

colonial era. However, by the late 1980s, with the growing international concern for human rights, especially the rights of women and girls, reforms in this area became necessary domestically. It was with the return to power in 1988 of the Pakistan People's Party (PPP) led by Benazir Bhutto that a new political era began, focused on democratic values, political pluralism, and women's empowerment. This article analyzes democratic reforms and their impact on gender policy in Pakistan during the period of 1988–1999. Special attention is given to the policies of the government led by Benazir Bhutto, which aimed at expanding women's rights and increasing their participation in socio-political life. The study also examines the role of civil society institutions, political parties, and mass media, as well as resistance from religious conservative groups. Furthermore, the influence of international organizations such as the United Nations and CEDAW is discussed. The findings suggest that Pakistan's experience represents a unique model of interaction between democratic values and gender policy in the Muslim world.

Keywords: Gender, Pakistan People's Party, Benazir Bhutto, WAF, Pakistan, Benazir Bhutto, democratic reforms, gender policy, women's rights, political participation, civil society, CEDAW, United Nations, democratization, social development.

XX asrning ikkinchi yarmi dunyo siyosiy hayotida demokratik tamoyillarning tobora mustahkamlanish davri bo'ldi. Bu jarayon, ayniqsa, Osiyo mintaqasidagi davlatlarda, jumladan, Pokistonda ham o'ziga xos tarixiy, siyosiy va ijtimoiy sharoitlarda kechdi. Mustaqillikka erishgan 1947-yildan keyingi davrda Pokiston siyosiy tizimi turli shakllanish bosqichlarini bosib o'tdi. Ayniqsa, 1988–1999-yillar oralig'i mamlakat tarixida siyosiy boshqaruvning nisbatan demokratlashuvi, fuqarolik jamiyatining faollashuvi hamda gender siyosatining davlat siyosatida alohida yo'nalish sifatida qaror topgan davri sifatida ajralib turadi [1; 215-b.].

ASOSIY QISM. Pokistonda 1988-yilda hokimiyatga Benazir Bhutto boshchiligidagi Pokiston xalq partiyasining (PPP) qaytishi bilan demokratik qadriyatlar, siyosiy plyuralizm va xotin-qizlar faolligini oshirishga qaratilgan yangi siyosiy davr boshlandi [2; 44-b.].

Benazir Bhutto nafaqat Pokiston, balki butun musulmon dunyosi tarixida birinchi ayol bosh vazir sifatida siyosiy tarixga kirdi. Uning hokimiyatga kelishi gender siyosatida tub burilish yasadi: ayollarni ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga jalb etish, ta'lim va bandlik sohalarida imkoniyatlar yaratish, shuningdek, ayollarga qarshi zo'ravonlikka qarshi qonunchilik bazasini kuchaytirish bo'yicha dastlabki qadamlar aynan shu davrda qo'yildi [3; 167-b.]. Shu tariqa, 1988–1999-yillar oralig'i Pokiston tarixida ayollar huquqlari uchun kurashning yangi bosqichi, siyosiy boshqaruvda demokratik institutlarning shakllanish davri sifatida baholanishi mumkin.

Mazkur davrning o'ziga xos jihati shundan iboratki, Pokiston jamiyati o'ta murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishga ega bo'lib, unda diniy qadriyatlar, patriarxal ijtimoiy tuzilmalar va zamonaviy demokratik tamoyillar o'zaro to'qnash kelgan. Shu bois gender islohotlarini amalga oshirish nafaqat siyosiy, balki madaniy va diniy jihatdan ham murakkab jarayon bo'ldi [4; 59-b.]. Biroq xalqaro tashkilotlarning, xususan, BMTning "Ayollar holati bo'yicha komissiyasi" va CEDAW (Convention on the Elimination of All Forms of Discrimination Against Women) kabi xalqaro konvensiyalar doirasidagi bosim va tavsiyalari mamlakat hukumati tomonidan bu yo'nalishda ma'lum chora-tadbirlarni amalga oshirishga turtki berdi [5; 11-b.].

Pokistonda demokratlashuv jarayonining yana bir o'ziga xos jihati shundaki, siyosiy tizimda fuqarolik institutlari, partiyalar va OAVning roli ortib bordi. 1988–1999-yillar mobaynida mamlakatda bir necha marotaba saylovlar o'tkazildi, ayollar siyosiy partiyalar, nodavlat tashkilotlar hamda jamoatchilik harakatlarida faol ishtirok eta boshladilar. Bu holat, o'z navbatida, demokratik qadriyatlar bilan gender siyosatining o'zaro uyg'unlashuvini ta'minladi [6; 93-b.].

Mazkur tadqiqotda 1988–1999-yillar davrida Pokiston siyosiy boshqaruv tizimida demokratik islohotlar jarayonining ayollar huquqlari, gender tenglik siyosati va ijtimoiy faollikning ortishiga ta'siri tahlil qilinadi. Bu jarayonning o'ziga xos jihatlari — ayollar siyosiy hayotga kirib kelishining ijtimoiy-siyosiy sabablari, davlat siyosatida gender masalasining ko'tarilishi, diniy-madaniy cheklolarning o'zgaruvchanligi hamda xalqaro omillar ta'siri — ilmiy nuqtayi nazardan yoritiladi. Shu ma'noda, Pokiston tajribasi nafaqat Janubiy Osiyo mintaqasida, balki musulmon dunyosida demokratik qadriyatlar va gender siyosati uyg'unligining o'ziga xos modeli sifatida ahamiyat kasb etadi [7; 202-b.].

1988-yilda Ziyo ul-Haqning halok bo'lishi mamlakatda yangi siyosiy imkoniyatlar ochdi. O'sha yilning noyabr oyida o'tkazilgan saylovlar natijasida Benazir Bhutto boshchiligidagi Pokiston xalq partiyasi (PPP) g'alaba qozondi va u musulmon dunyosining ilk ayol bosh vaziri sifatida hokimiyat tepasiga

keldi [8; 119-b.]. Uning saylanishi nafaqat demokratik qadriyatlarning tiklanishi, balki gender masalalarining siyosiy maydonga qaytishi uchun ham muhim burilish bo'ldi. Benazir Bhutto o'z hukumatini "demokratik yangilanish" davri deb atadi va siyosiy tizimni fuqarolik institutlariga qaytarish, ayollarni siyosiy va ijtimoiy jarayonlarga jalb etish, shuningdek, harbiylarning siyosiy ta'sirini kamaytirish vazifasini oldiga qo'ydi [2; 37-b.].

Benazir Bhutto hukumati davrida ayollarning siyosiy ishtirokini kengaytirish maqsadida bir nechta tashabbuslar ilgari surildi. Eng muhim o'zgarishlardan biri parlament va mahalliy kengashlarda ayollar uchun kvotalar tizimini saqlab qolish edi. Bu kvotalar dastlab 1973-yil Konstitutsiyasida joriy etilgan bo'lsa-da, Ziyo davrida amalda sust ishlagan. 1988-yildan keyin esa bu mexanizm qayta faollashtirilib, ayollarning siyosiy vakillik imkoniyatlari tiklandi [9; 61-b.].

Bundan tashqari, Bhutto hukumati ayollarni davlat boshqaruvi tizimiga jalb etish bo'yicha ham bir qator amaliy choralarni amalga oshirdi. Xususan, birinchi marta ayol elchilar va yuqori lavozimli davlat amaldorlari tayinlandi. Bu jarayon Pokiston jamiyatida an'anaviy gender stereotiplarini buzish yo'lidagi ilk qadam sifatida baholandi. Shu bilan birga, hukumat ayollarni ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faolroq bo'lishga da'vat etdi.

Benazir Bhutto 1989-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Ayollar taraqqiyoti o'n yilligi" yakunlariga bag'ishlangan yig'ilishida Pokiston hukumati gender tenglikni "davlat siyosati ustuvor yo'nalishlaridan biri" sifatida e'lon qilganini ta'kidladi [10; 29-b.]. Shu tariqa, ayollar masalasi xalqaro maydonda ham Pokistonning demokratik imijining muhim tarkibiy qismiga aylandi.

Biroq Benazir Bhutto hukumatining gender yo'nalishidagi siyosati jamiyatning barcha qatlamlari tomonidan bir xil qabul qilinmadi. Mamlakatdagi konservativ diniy kuchlar, xususan, "Jamiat-e Islami" va "Jamiat-e Ulama-e Islam" kabi partiyalar Bhutto siyosatini "G'arb ta'siri" va "islomiy qadriyatlarga tahdid" sifatida baholadilar [6; 104-b.]. Ular Bhuttoni "ayol rahbar sifatida mamlakatni boshqarishga diniy asos yo'q" degan da'volar bilan tanqid ostiga oldilar.

Bu qarshiliklar natijasida Benazir Bhutto ko'plab gender islohotlarini amalga oshirishda ehtiyotkorlik siyosatini yuritishga majbur bo'ldi. Masalan, u "Hudud ordonansi"ni bekor qila olmadi, ammo bu qonunlarning ayollarga zararli jihatlari yumshatishga harakat qildi. Shu bilan birga, u ayollarga huquqiy yordam ko'rsatish uchun "Women's Division" deb nomlangan maxsus davlat idorasini qayta tikladi [11; 17-b.].

Bu davrda ayollar tashkilotlari ham faollashdi. Xususan, Women's Action Forum (WAF) harakati 1988-yildan keyin o'z faoliyatini kengaytirib, gender adolatsizlikka qarshi jamoatchilik kampaniyalarini boshladi. Ularning talablari orasida ayollar uchun ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish, siyosiy lavozimlarda teng vakillik hamda ayollarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi qonunlarni kuchaytirish kabi masalalar bor edi [12; 42-b.]. Shu tariqa, fuqarolik jamiyati gender tenglik siyosatining muhim tayanchiga aylandi.

Pokistonda gender siyosati rivojiga xalqaro tashkilotlarning ta'siri sezilarli bo'ldi. 1989-yilda Pokiston hukumati BMT tomonidan ishlab chiqilgan CEDAW (Convention on the Elimination of All Forms of Discrimination Against Women) konvensiyasini ratifikatsiya qilish masalasini muhokama qila boshladi [13; 76-b.]. Garchi bu jarayon 1996-yilgacha to'liq amalga oshmagan bo'lsa-da, xalqaro bosim va tavsiyalar mamlakat ichkarisida gender islohotlarini tezlashtirish zaruratini kuchaytirdi.

Bundan tashqari, Bhutto hukumati xalqaro donor tashkilotlar — Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va UNDP bilan hamkorlikda ayollarni iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqdi. Bu dasturlar orqali ayollar uchun mikroqarz tizimi, hunarmandchilik markazlari va kichik bizneslarni rivojlantirish tashabbuslari yo'lga qo'yildi [14; 143-b.]. Ushbu tashabbuslar jamiyatda ayollarning iqtisodiy mustaqilligini oshirish va gender tafovutini kamaytirishga xizmat qildi.

Benazir Bhutto davrida demokratlashuv jarayoni nafaqat siyosiy partiyalar faoliyatining tiklanishi, balki fuqarolik institutlarining mustahkamlanishi bilan ham kechdi. 1988–1990-yillar oralig'ida mamlakatda erkin matbuot qayta faoliyat boshladi, ayollar jurnalistikasi rivojlana boshladi, OAVda gender masalalari muntazam yoritila boshlandi [15; 91-b.]. Ayol jurnalistlar soni ortdi, ularning ba'zilar siyosiy tahlilchi sifatida tanildi.

Biroq demokratik tizim hali zaif edi. Iqtisodiy inqiroz, siyosiy raqobat va harbiy doiralarning kuchli ta'siri natijasida Bhutto hukumati 1990-yilda ishonch votumini yo'qotdi va tarqatib yuborildi. Shunga qaramay, 1988–1990-yillar Pokiston tarixida fuqarolik boshqaruvining qayta tiklanishi, ayollar uchun siyosiy ishtirok maydonining kengayishi hamda gender masalasining siyosiy diskursda markaziy mavzuga aylanishi bilan esda qoldi [16; 211-b.].

1990–1993-yillar Pokiston tarixida demokratik boshqaruvning murakkab va ziddiyatli

davrlaridan biri bo'ldi. Bu yillarda mamlakat siyosiy tizimi demokratiya yo'lidan chekinib, ko'p hollarda harbiy-boshqaruv elitasi va diniy konservatizmning qayta kuchayishiga guvoh bo'lindi. Ayniqsa, gender islohotlari sohasida 1988–1990-yillarda Benazir Bhutto hukumatining boshlab bergan jarayonlari turg'unlikka uchradi. Bhuttodan so'ng hokimiyatga kelgan Muhammad Navoz Sharif hukumati o'z siyosatini asosan iqtisodiy liberallashtirish va davlat boshqaruvini markazlashtirishga qaratgan bo'lsa-da, ayollar huquqlarini kengaytirish masalasida sezilarli o'zgarishlar kuzatildi.

1993–1996-yillar Pokiston tarixida siyosiy beqarorlikdan so'ng demokratik tiklanish va siyosiy institutlarning qayta faoliyat boshlashi davri sifatida ajralib turadi. 1993-yilda prezident G'ulom Ishaqxon va Bosh vazir Navoz Sharif o'rtasidagi ziddiyat natijasida parlament tarqatib yuborilganidan so'ng, yangi saylovlar o'tkazildi va Benazir Bhutto ikkinchi marta bosh vazir lavozimiga saylandi. Bu siyosiy tiklanish jarayoni nafaqat demokratik institutlarning mustahkamlanishiga, balki ayollar siyosiy faolligining yana bir bor kuchayishiga imkon yaratdi [17; 154-b.].

Bhutto ikkinchi hukumatida ayollar masalasi davlat siyosatining markaziy yo'nalishlaridan biri sifatida ilgari surildi. Shu davrda parlamentda ayollarning vakilligi oshirildi: ayollar uchun ajratilgan kvotalar kuchaytirildi va ularning parlament faoliyatidagi ishtiroki faollashdi. Shu bilan birga, hukumat mahalliy kengashlarda ham ayollarni siyosiy faoliyatga jalb qilishga e'tibor qaratdi. Bu esa hududiy darajada ayollarning ijtimoiy va siyosiy mavqeini mustahkamlashga xizmat qildi [18; 72-b.].

Ayollar huquqlari va gender siyosatiga doir qonunchilik sohasida ham sezilarli o'zgarishlar bo'ldi. 1994-yilda "Women's Protection Act" qabul qilinib, Hudud ordinanslarining ayollarga nisbatan qattiq qoidalari yumshatildi, jinsiy jinoyatlar bilan bog'liq ishlar bo'yicha ayollarning himoya mexanizmlari kuchaytirildi. Ushbu qonun ayollarning ijtimoiy himoya tizimiga bo'lgan ishonchini oshirdi va gender tengligi bo'yicha davlat siyosatida muhim burilish sifatida baholandi [19; 108-b.].

Shu davrda fuqarolik jamiyati va nodavlat tashkilotlarning rovida ham muhim o'zgarishlar yuz berdi. Xususan, Women's Action Forum (WAF) va Aurat Foundation ayollarni siyosiy jarayonlarga jalb qilish, ularning huquqlarini himoya qilish va jamoatchilik kampaniyalarini amalga oshirishda faol bo'ldi. Bu tashkilotlar, ayniqsa, ta'lim, sog'liqni saqlash va iqtisodiy mustaqillik sohalarida ayollarning faolligini oshirishga yo'naltirilgan dasturlarni amalga oshirdi [20; 59-b.].

Ijtimoiy va iqtisodiy sohada ham ayollarning faolligi oshdi. 1993–1996-yillarda hukumat va xalqaro donor tashkilotlar hamkorligida ayollarga mo'ljallangan mikrocredit dasturlari, hunarmandchilik va kichik bizneslarni qo'llab-quvvatlash loyihalari yo'lga qo'yildi. Bu tashabbuslar ayollarning iqtisodiy mustaqilligini oshirish va ularning jamiyatdagi mavqeini kuchaytirish bilan birga, siyosiy faollikni ham rag'batlantirdi [21; 127-b.].

OAV va matbuot sohasida ham gender masalalari yanada keng yoritila boshlandi. Ayol jurnalistlar soni ortib, ular siyosiy tahlil va ayollar huquqlari masalalarida faol rol o'ynay boshladilar. Shu tariqa, siyosiy beqarorlikdan so'ng demokratik tiklanish jarayonida ayollar siyosiy va ijtimoiy maydonda sezilarli faollik ko'rsatdi. Bu esa mamlakatdagi gender siyosatining keyingi rivojlanishiga mustahkam poydevor yaratdi [22; 93-b.].

XULOSA. 1993–1996-yillar Pokistonda ayollar siyosiy faolligining kuchayishi va demokratik institutlarning tiklanishi bilan esda qoldi. Bu davrda amalga oshirilgan islohotlar va dasturlar keyingi yillarda gender tengligi va siyosiy vakillik masalalarining mustahkamlanishiga tayanch bo'ldi, shuningdek, xalqaro hamjamiyat oldidagi Pokistonning demokratik imijini mustahkamladi.

1996–1999-yillar Pokiston tarixida siyosiy barqarorlikni tiklash va gender siyosatini shakllantirish borasida muhim davr sifatida ajralib turdi. Bu yillar davomida mamlakatda siyosiy maydon nisbatan barqarorlashdi, parlament institutlari faoliyatini qayta tikladi, shuningdek, xotin-qizlar huquqlari sohasida amaliy choralar kuchaytirildi. 1996-yilga kelib Benazir Bhutto hukumatining islohotlari va fuqarolik jamiyati tashabbuslari natijasida ayollarning siyosiy va ijtimoiy faolligi sezilarli darajada oshdi. Bu esa keyingi siyosiy bosqichlar uchun tayanch bo'ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rizvi H. A. *The Military and Politics in Pakistan: 1947–1997*. – Lahore: Sang-e-Meel Publications, 2000. – P. 215.
2. Weiss A. M. *Women, Civil Society, and the State in Pakistan*. – Boulder: Lynne Rienner Publishers, 1998.
3. Bhutto B. *Daughter of the East: An Autobiography*. – London: Hamish Hamilton, 1988. – P. 167.
4. Mumtaz K., Shaheed F. *Women of Pakistan: Two Steps Forward, One Step Back?* – Lahore: Vanguard Books, 1987. – P. 59.

5. UN Women. Pakistan and CEDAW: National Implementation Reports. – New York: United Nations, 1995. – P. 11.
6. Jalal A. Democracy and Authoritarianism in South Asia: A Comparative and Historical Perspective. – Cambridge: Cambridge University Press, 1995. – P. 93.
7. Khan S. Gender, Religion, and Development in Pakistan. – London: Zed Books, 1998. – P. 202.
8. Bhutto B. Daughter of the East: An Autobiography. – London: Hamish Hamilton, 1998. – P. 119.
9. Mumtaz K. Women and Politics in Pakistan: Participation and Representation. – Karachi: Oxford University Press, 1998. – P. 61.
10. UN Women. Pakistan and the UN Decade for Women. – New York: UN Publications, 1989. – P. 29.
11. Shaheed F. Gender, Religion and the Quest for Justice in Pakistan. – Lahore: ASR Publications, 1990. – P. 17.
12. Women's Action Forum (WAF). Annual Report 1989–1990. – Karachi: WAF Secretariat, 1990. – P. 42.
13. UNDP. Gender and Development in Pakistan. – Islamabad: UNDP Pakistan Office, 1989. – P. 76.
14. World Bank. Pakistan: Women in Development Report. – Washington, D.C.: World Bank, 1990. – P. 143.
15. Ahmed F. Press and Democracy in Pakistan. – Lahore: Vanguard Books, 1991. – P. 91.
16. Rizvi H. A. Political Parties in Pakistan: Challenges to Democracy. – Lahore: Sang-e-Meel Publications, 1993. – P. 211.
17. Rizvi H. A. The Military and Politics in Pakistan: 1947–1997. – Lahore: Sang-e-Meel Publications, 2000. – P. 154.
18. Mumtaz K., Shaheed F. Women of Pakistan: Two Steps Forward, One Step Back? – Lahore: Vanguard Books, 1987. – P. 72.
19. Shaheed F. Women's Experiences and Legal Reforms in Pakistan. – Lahore: Shirkat Gah, 1995. – P. 108.
20. Aurat Foundation. Annual Report 1993–1996. – Lahore, 1996. – P. 59.
21. UNDP. Gender and Development in Pakistan. – Islamabad: UNDP Pakistan Office, 1995. – P. 127.
22. Ahmed F. Press and Democracy in Pakistan. – Lahore: Vanguard Books, 1996. – P. 93.